



XX ASR O‘ZBEK NASRIDA KO‘ZI OJIZ INSONLAR RUHIY HOLATI

Moxidilxon Abdullayeva

Farg‘ona davlat universiteti mustaqil izlanuvchi

Annotatsiya:

Ushbu tezisdagi yozuvchi V.G‘ofurov hamda N.Mo‘ydinovlarning asarlarida keltirilgan avval bo‘lgan va keyin bo‘lgan ko‘zi ojiz insonlar ruhiyatidagi farqlar yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Badiiy psixologizm, obraz. Detal, bevosita ruhiyat tasviri, bilvosita ruhiyat tasviri, ko‘zi ojiz inson.

Annotation:

This thesis highlights the differences in the psychology of blind people before and after, as reflected in the works of writers V. G‘ofurov and N. Mo‘ydinov.

Keywords: Artistic psychologism, image, detail, direct depiction of psychology, indirect depiction of psychology, blind person.

Аннотация:

В данной тезисной работе освещены различия в психологии слепых людей «до» и «после», отражённые в произведениях писателей В.Гофурова Н.Муйдинова.

Ключевые слова: Художественный психологизм, образ, деталь, прямое изображение психики, косвенное изображение психики, слепой человек.

Badiiy adabiyot markazida, birinchi navbatda, inson va uning taqdiri turadi. Adabiyot o‘z materialini hayotdan, undagi voqea-hodisalardan oladi. Shunday ekan, uning oldidagi birinchi vazifa inson obrazini to‘laqonli gavdalantirishdir.

Badiiy adabiyotda inson obrazini yaratishda, uni o‘quvchi ko‘z o‘ngida ishonarli va jonli aks ettirishda muallif xarakteristikasi, portret, personaj nutqi kabi vositalar bilan bir qatorda badiiy psixologizm alohida o‘rin tutadi. Har bir insonning ruhiy



International Educators Conference

Hosted online from Toronto, Canada

Website: econfseries.com

7th October, 2025

olami, uning ichki kechinmalari o'ziga xos jihatlari bilan ajralib turadi. Buni tushunish, anglash boshqalar uchun mushkul, albatta. Zero, oyna yo'qki, inson ichki olamini ko'rsatib tursa. Adabiy jarayonda badiiy psixologizm ana shunday mas'uliyatni o'z zimmasiga oladi. Yozuvchi personaj ruhiyatini bevosita yoki bilvosita tasvirlaydi. "Personaj o'y-kechinmalari, his-tuyg'ularining ichki monolog (ong oqimi) tarzida yoki muallif tilidan (o'ziniki bo'lmagan avtor gapi) bayon qilinishi psixologik tasvirning bevosita shakli hisoblanadi"¹.

"Asarda personaj ruhiyatining uning xatti-harakatlari, gap-so'zlari, yuz-ko'z ifodalari (mimikasi), undagi fiziologik o'zgarishlarni ko'rsatish orqali ochib berilishi bilvosita psixologik tasvirdir"². Mazkur vosita orqali yozuvchi adabiyotni real hayot bilan mutanosib bog'laydi. Yozuvchilar V.G'ofurov hamda N.Mo'ydinov asarlarida ham badiiy psixologizmning ana shu ikki holatini uchratamiz. V.G'ofurov o'zining "Vafodor" romanida Rustam obrazi orqali keyin ko'zi ojiz bo'lganlar ruhiyatini ochib beradi. Rustam yozuvchining prototipi bo'lib, uning ruhiyatini akslantirishda adib, asosan, o'z tajribalariga tayanadi. Ya'ni keyin bo'lgan ko'zi ojizlikning og'ir nuqtalarini jonli gavdalantiradi. Ma'lumki, avval bo'lgan ko'zi ojizlar o'z taqdirilariga oson ko'nadilar, lekin keyin bo'lgan ko'zi ojizlar ruhiyatida esa bu jarayon ancha muammolarni tug'diradi. Rustam ham ana shu jarayonlarni o'z boshidan o'tkazadi. Hammasi Rustam gospitalga keltirilgandan keyin boshlandi. U butun umr ko'r bo'lib qolishini bilgach, o'zini qo'yarga joy topolmay qoldi. Uning ruhiyatida ulkan evrilishlar avj oldi. Shuni ta'kidlash kerakki, tug'ma ko'rlar o'z taqdirilariga ko'nishlari u darajada qiyin bo'lmaydi, chunki ular tug'iliboq mana shu hayotni qabul qilgan bo'ladilar. Lekin bu yorug' dunyoni ko'rib turib keyin uni birdan ko'rmay qolish, albatta, buni tushuntirish anchayin og'ir hodisadir. Rustam ham o'zini go'yo keraksiz odamday his qilardi. U butunlay umidsizlikka tushib qolgandi. Hattoki do'stlarining yupatishlari ham unga go'yo haqoratdek tuyulardi. Shu o'rinda aytish joizki, inson o'zini keraksiz va foydasiz his qilganida butunlay umidsizlikka tushib qolar ekan. Chinakam mard inson uchun esa o'zini jamiyatga kerakli kishi sifatida his qilish haqiqiy baxt hisoblanar ekan. "Uning ko'ziga hech narsa ko'rinmas, hech narsaning umidida qalbi yonmas ham edi. Uni dahshat

¹ Quronov D. Adabiyotshunoslik nazariyasi asoslari. – Toshkent: Navoiy universiteti, 2018, -B. 103.

² Quronov D. Adabiyotshunoslik nazariyasi asoslari. – Toshkent: Navoiy universiteti, 2018, -B. 106.



International Educators Conference

Hosted online from Toronto, Canada

Website: econfseries.com

7th October, 2025

o‘zining yondiruvchi quchog‘iga olgan edi. Haligi hamshira Katyaning gaplaridan keyin bor umidlarinig cho‘g‘i ham o‘chib bo‘lgan, endi unga faqat ufqida bitta ham yalt etgan yulduzi yo‘q kelajak ko‘rinardi. Bu kelajak unga hech narsa va‘da etmaydi. U, yolgiz, u hech kimga kerakmas!”³

Jang maydonlarida o‘limga qarshi tik bora olgan yigitni ko‘rlik osongina mag‘lub etadi. U dastlab o‘zini o‘ldirmoqchi bo‘ladi. Lekin buning uddasidan chiqa olmagach, undan umidlarini uzishlarini so‘rab suyuklisi Muhabbatga maktub yozadi. Rustam xatda o‘zini qorong‘u go‘rga kirib qolgandek his qilayotganini aytib, Muhabbatdan undan umidini uzishini so‘raydi. Ko‘rinadiki, birgina ko‘rlik tufayli u hamma narsadan umidini uzib qo‘ygan. Rustam asta-sekin ko‘zi ojizlikka ko‘nib borayotgan bo‘lsa ham ba‘zi holatlar uni yana ham qiyin holatga tushib qolishiga sabab bo‘lardi. Mo‘ljalni to‘g‘ri ololmay eshik yoki hovlidagi daraxtlarga urilib ketishi, hatto bir kuni muvozanatni yo‘qotib so‘ridagi pichoqni bosib olishi – bularning barchasi Rustamning ruhiyatidagi iztiroblardan darak beradi.

Bir so‘z bilan aytganda, Rustam yozuvchining prototipidir. Shunday ekan, adib Rustamning ko‘zi ojizlik holatiga ko‘nish jarayonidagi ruhiy iztiroblarni o‘z boshidan o‘tkazadi va buni badiiy psixologizmning, asosan, bevosita usuli hamda bir qator detallar vositasida haqqoniy tasvirlaydi.

Yozuvchi No‘monjon Mo‘ydinovning “G‘uborli gullar” romanida ham ruhiyat tasvirining ana shu ikki turini uchratamiz. Lekin yozuvchi N.Mo‘ydinov V.G‘ofurovdan farqli o‘laroq o‘z qahramonlarini hamisha taqdirleri bilan kelishib yashashga majbur bo‘lishlarini yoritadi. Ular ko‘rlikdan ham ko‘ra ko‘proq hayot sinovlarining ayovsiz zarbalaridan hamda tashqaridagi munosabatlardan aziyat chekadilar.

Hayot turfa xil sinovlardan iborat bo‘lib, bu turfa xilliklar nobinlarni ham chetlab o‘tmasligi hammaga ma‘lum. Sog‘lom kishilarniki kabi ko‘rlarning o‘z ga‘mlari, tashvishlari va shu bilan birga ulardan qolgan ruhiyat iztiroblari bo‘ladi. Asar qahramoni Shohida ham ana shunday ruhiy iztiroblar iskanjasida qiynaladi. U ko‘zi ojiz bo‘lishi bilan birga, onasidan ham erta ayrilgan. Qolaversa, o‘gay onaning va

³ G‘ofurov V. Vafodor. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti, 1973, -B. 196.



International Educators Conference

Hosted online from Toronto, Canada

Website: econfseries.com

7th October, 2025

o'gay akaning tazyiqlaridan bezor. Shohida mazkur jarayonda lirik qahramon sifatida gavdalanadi hamda o'z ruhiy iztiroblarini she'r bilan akslantiradi.

Nega bunday etdingiz, ona,
Meni tashlab ketdingiz, ona?
Ko'z yoshimni selday oqizib,
Jannatlarga yetdingiz, ona.⁴

Aslida, har bir inson iztirob chekkanda ruhiy iztiroblarini qandaydir bir satrlar bilan chiqarib yuborishga harakat qiladi. Adabiyot va qo'shiqchilik san'ati ko'zi ojiz kishilarning eng sevimli hamrohlari hisoblanadi. Shohida ham ana shu hamrohi yordamida o'z ruhiy holatini bilvosita namoyon etmoqda. U ham ko'zi ojizlikdan, ham o'gay ona tazyiqidan, qolaversa, aqlan zaif o'gay akaning bema'ni qiliqlaridan beziydi. O'zini chalg'itish maqsadida shirin-shirin xayollarga beriladi: "Shaharda chiroyli qorilar maktabi bor. Ko'rlar qanday o'qirkin yo bu gaplar ertakmikin?!"⁵ akasining tegajog'ligidan qo'rqib yong'oq daraxti ustiga chiqib olib shirin-shirin o'ylar bilan o'zini chalg'itishga urinayotgan Shohida ruhiyatida yana shuni kuzatish mumkinki, u o'qishga, bilim olishga tashna. Shunchalar tashnaki, ba'zan o'z hayollarining ertak bo'lib chiqishidan qo'rqadi, lekin uydagi muhit uning o'qishiga, ilm olishiga mutlaqo qarshi. Aytish mumkinki, aksar ko'zi ojizlar o'zlarini ilm olish bilan chalg'itadilar va bu bilan o'z ruhiyatlariga taskin beradilar. Shohida ham ana shunday qizlarning tipik namunasidir, deyish mumkin. Lekin Shohidani hech kim tushunmaydi. O'gay onasi esa bema'ni xayollar bilan band bo'lib, Shohidani o'zining o'g'li Nurmatga nikohlab bermoqchi. Yosh, biroq aqlli Shohida buni sezadi va yagona panohi bo'lmish xolasining uyiga yana qochib ketadi. Lekin bu safar xolasi ham unga yordam berishdan qochadi. Shu mahal umidsiz qolgan Shohida ruhiyatida cheksiz g'alayonlar kechadi va bu harakatlariga ko'chadi. Shu o'rinda yozuvchi soy detali orqali Shohidaning ruhiy holatini haqqoniy tasvirlaydi. U o'zini soyga tashlamoqchi bo'ladi, biroq buni xolasi tez fahmlaydi va uni bu falokatdan qutqarib qoladi.

⁴ Mo'ydinov N. G'uborli gullar. – Toshkent: Tafakkur, 2020. –B. 8.

⁵ Mo'ydinov N. G'uborli gullar. – Toshkent: Tafakkur, 2020. –B. 9.



International Educators Conference

Hosted online from Toronto, Canada

Website: econfseries.com

7th October, 2025

Xulosa qilib aytganda, yozuvchi V.G'ofurov o'zining "Vafodor" romanida kyin ojiz bo'lib qolgan inson ruhiyatidagi evrilishlarni yoritisa, N.Mo'ydinov esa tug'ma ojizlarning hayot sinovlari natijasida yuzaga kelgan ruhiy iztiroblarini inikos ettiradi hamda bu jarayonlarni tasvirlashda yozuvchilar bevosita va bilvosita ruhiyat tasviridan, qolaversa, bir qator detallardan unumli foydalanadilar.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.Quronov D. Adabiyotshunoslik nazariyasi asoslari. – Toshkent: Navoiy universiteti,2018
- 2.Тимофеев Л.И. Основы теории литературы, М., 1959, стр. 53
- 3.Umurov H. Adabiyotshunoslik nazariyasi, - Toshkent: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti,2004
- 4.Тўйчиев У. Ўзбек адабиётида бадиийлик. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2011.
5. Мо'ydinov N. G'uborli gullar – Toshkent: Tafakkur, 2020
- 4.G'ofurov V. Vafodor, - Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti,1973.